BO‘LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH: QONUNCHILIK VA AMALIYOT

Shopulatova Zulfiya Nurullayevna,

Buxoro Xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirishning normativ-huquqiy poydevori tahlil qilinadi. Muallif tomonidan sohani tartibga soluvchi xalqaro huquqiy mezonlar, milliy qonunchilik hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlari hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining idoraviy hujjatlari ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan atroflicha tadqiq etilgan. Maqolada bo‘lajak pedagog-psixologlarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini oshirish bosqichlari nazariy hamda amaliy muvofiqlik nuqtai nazaridan tizimlashtirib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Xalqaro Pakt, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, mentorlik, konseptual g‘oya, kredit, malaka talabi, o‘quv fan dasturi.*

Inson huquqlari va ta’lim sohasidagi xalqaro standartlar bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida»gi Xalqaro paktning 13-moddasida ushbu ustuvor huquqiy mezonlar o‘z aksini topgan.

Hujjatda ta’kidlanishicha, mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir shaxsning ta’lim olish huquqini e’tirof etadi hamda ta’lim inson shaxsiyatini har

taraflama rivojlantirish, uning qadr-qimmatini anglash, shuningdek, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga nisbatan hurmat hissini mustahkamlashga qaratilishi lozimligini belgilaydi. Shu bilan birga, ta’lim har bir shaxsga erkin jamiyatning foydali va mas’uliyatli a’zosi bo‘lish imkoniyatini yaratishi, barcha irqiy, etnik va diniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik (sabr-toqat) va do‘stlik rishtalarini qaror toptirishi hamda BMTning tinchlikni saqlashga qaratilgan ezgu faoliyatiga ko‘maklashishi shart.

Ushbu xalqaro-huquqiy norma bo‘lajak pedagog-psixologlarning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni, ya’ni turli ijtimoiy va etnik guruhlar vakillari bilan samarali muloqotga kirishish, ularda bag‘rikenglik hamda insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim huquqiy kafolati hisoblanadi [1] - deb qayd etilgan. Mazkur inson har tomonlama takomillashgan shaxsga aylaninshida, va butun jamiyatning barqarorlashishida ta’limnng xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi Ikkinchi bo‘limining IX bobi (41–53-moddalari)da fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari kafolatlangan. Mazkur normativ-huquqiy poydevor bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning milliy-huquqiy asosini belgilab beradi [2].

Mustaqillik yillarida ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishda teng imkoniyatlarning ta’minlanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy

qadriyatlarning singdirilganligi, shuningdek, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik hamda demokratik xususiyati kabilar huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Ular bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur Qonunning 46 - moddasida tadqiqot muammosining dolzarbligini aniq ko‘rsatish imkonini beradigan pedagog-psixolog xodimlarning quyidagi majburiyatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan: ta’lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr - qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi; o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi; axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart - sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi; voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim - tarbiya ishlarini ularning ota - onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi [3] va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-son Qarorida oliy ta’lim muassasalarining mamlakatdagi keng qamrovli islohotlardagi tashabbuskorligini oshirish va tizimli ishlarni tashkil etish, shuningdek, davlat va jamiyat hayotidagi tub o‘zgarishlar mazmunini ommaviy axborot vositalari orqali keng aholiga yetkazish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Shuning bilan birga, «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da bo‘lajak pedagog-psixologlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari aks etgan. Xususan:

Mas’uliyatli, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan hamda yuksak insoniy fazilatlarga ega yoshlarni tayyorlashda yangicha ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

«Maktab - ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i» konsepsiyasi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan hamkorligini rivojlantirish, o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish hamda huquqiy savodxonligini oshirishda mentorlik modelini tatbiq etish nazarda tutilgan [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimizda butun ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalashning zamonaviy tendensiyalari bo‘lajak pedagog-psixologlarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash masalasini chuqur va har taraflama qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu fikrni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va asarlaridagi [5] konseptual g‘oyalar, shuningdek, 2020 - yil 18 - fevraldagi PF - 5938 - son “Jamiyatda ijtimoiy - ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab - quvvatlash hamda oila va xotin - qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora - tadbirlari to‘g‘risida” [6], 2020 - yil 6 - noyabrdagi PF - 6108 - son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” [8] gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 yanvardagi PF - 60 - son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari [7], 2017 - yil 27 - iyuldagi PQ - 3151 - son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora - tadbirlari

to‘g‘risida” [9], 2019 - yil 3 - maydagi PQ - 4307 - son “Ma’naviy - ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida” [11], 2020 - yil 27 - fevraldagi PQ - 4623 - son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada ривожлантириш чора - тадбирлари тўғрисида” [12], 2021 - yil 26 martdagi PQ - 5040 - son “Ma’naviy - ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” [13] gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020 - yil 31 - dekabrdagi 820 - son “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora - tadbirlari to‘g‘risida” [14] gi Qarorida belgilangan vazifalar to‘liq tasdiqlaydi.

Hozirgi vaqtdagi xalqaro va transmilliy rivojlanish aloqalari ijtimoiy hayotimizga ko‘p va xilma-xil o‘zgarishlar olib kelayotgan bo‘lib, O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanish maydoniga integratsiyalashuvi yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning tobora ortishini taqozo etmoqda, chunki faqat ijtimoiy-madaniy kompetentlikka ega bo‘lgan shaxsgina jahon madaniyatlari muloqotining faol hamda samarali ishtirokchisiga aylana oladi. Ayni shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-sentabrdagi «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3289-son Qarorida [15] bo‘lajak pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko‘nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy, ijtimoiy hamda shaxsiy tayyorgarlikni oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish va pedagogik nufuz hamda kompetentlikni rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyundagi «Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish

jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 259-sonli buyrug‘i [16] talablari asosida soha kengashlari tomonidan tasdiqlangan malaka talablarida bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish va faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish, falsafiy bilimlardan kasbiy faoliyatida unumli foydalanish, Vatan tarixini bilish va umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy asoslash, xorijiy tillardan birida kasbiy hujjatlar bilan ishlay olish hamda axborotlarni mustaqil tahlil qilib asosli qarorlar qabul qilish kabi muayyan mezoniyliklar belgilab berilgan.

Shuningdek, talabalarda jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, boshqarish hamda raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish kabi talablarning qo‘yilishi oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni har taraflama yetuk kadr sifatida shakllantirishda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatadi. Mazkur buyruqning 5-bandi 2-xatboshisiga muvofiq, 2023–2024-o‘quv yilidan e’tiboran o‘quv rejalarning majburiy fanlar blokiga «Dinshunoslik» fani mustaqil tarzda kiritilib, O‘zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va jami 4 kredit – 120 soatga (60 soat auditoriya, 60 soat mustaqil ta’lim) mo‘ljallangan «Dinshunoslik» hamda «Falsafa» fanlari o‘quv dasturlari asosida ta’lim jarayoni samarali tashkil etib kelinmoqda.

Normativ-huquqiy poydevor va ma’naviy-g‘oyaviy zamin bilan bir qatorda, psixologiya fani va uning amaliy tarmoqlari bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni bevosita shakllantiruvchi amaliy-metodologik o‘zak hisoblanadi. Zero, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy munosabatlar, avvalo, shaxsning ruhiy olami, idrok etish xususiyatlari, qadriyatlar tizimi va muloqot madaniyati orqali namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya: Talabalarda turli madaniyat, etnos va ijtimoiy guruh vaqillarining xulq-atvor motivlarini, qadriyat va urf-odatlarini

to‘g‘ri tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa turli madaniy muhitda o‘zaro bag‘rikenglik (tolerantlik) va inklyuziv muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yosh va pedagogik psixologiya: Ta’lim oluvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish, jamoada sog‘lom psixologik iqlimni shakllantirish hamda madaniyatlararo hamkorlikni ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi.

Muloqot va konfliktologiya psixologiyasi: Ijtimoiy-madaniy tafovutlar sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizo va kelishmovchiliklarning oldini olish, konstruktiv muloqot olib borish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani ta’minlash mexanizmlarini o‘rgatadi.

Shaxs psixologiyasi hamda psixodiagnostika: Bo‘lajak mutaxassisning o‘z-o‘zini anglash, emotsional intelektini rivojlantirish hamda shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini to‘g‘ri baholash (diagnostika qilish) kompetensiyasini oshiradi.

Demeak, psixologiya fani va uning fanlararo amaliy uslublari normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ijtimoiy-madaniy talablarni bo‘lajak pedagog-psixologlarning kasbiy va shaxsiy ko‘nikmalariga aylantiruvchi asosiy vositachi va harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

«Dinshunoslik» fani o‘quv dasturida diniy ta’limotlarning tarixi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish, ekstremizm hamda terrorizmning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash va ularning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish asosiy vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, talabalarda diniy va dunyoviy jarayonlarga nisbatan mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, diniy aqidaparastlik profilaktikasi va unga qarshi kurashda nazariy

bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish hamda mustaqil ta’lim jarayonida egallangan bilimlardan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi ijtimoiy-madaniy vazifalar fanning ustuvor yo‘nalishlari sifatida nazarda tutilgan [17].

«Falsafa» fani o‘quv dasturida talabalarning dunyoni bilish va uni o‘zgartirishga tanqidiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashuvini shakllantirish, tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini anglash hamda texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyutsiyasini tahlil qilish asosiy vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, fanning ijtimoiy-madaniy yo‘nalishiga milliy qadriyatlar, madaniyat hamda ommaviy madaniyatning o‘zaro aloqasi va farqlarini anglash, dunyoni bilish va haqiqatni anglashda amaliyot hamda faoliyat uyg‘unligini ta’minlash, to‘g‘ri fikrni ijobiy maqsadlarga yo‘naltirish choralarini ko‘rish kiradi. Bular bilan birga, ta’lim falsafasi va falsafa ta’limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rnini belgilash, global korrupsiyaning sabablari hamda shakllarini bilgan holda unga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida to‘liq namoyon etish hamda bo‘lajak pedagog-psixologlarda ijtimoiy va professional mas’uliyatni hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish tuyg‘usini rivojlantirish fanning ustuvor vazifalari sifatida ko‘rsatilgan [18].

Xulosa shuki, yuqoridagi o‘quv dasturlar va qonunchilik normalari bo‘lajak pedagog-psixolog kadrlarni har taraflama yetuk mutaxassis etib tayyorlashga, xususan ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni tizimli rivojlantirishga ijobiy va samarli ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida” gi Birlashhan Millatlat tashkilotining Xalqaro pakti. Nyu - York 1966 - yil 16 - dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstituttsuyasi. 2023 - yil 5 - may (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241 - son)

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ. Toshkent 2020 - yil 23 sentabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF - 5847 - son Farmoni //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887 - son.

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: O‘zbekiston, 2017. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017. Mirziyoyev Sh.M. ning BMT Bosh Assambleyasi 72 - sessiyasida so‘zlagan nutqi //"Xalq so‘zi", 2017 - yil 20 sentabr. Yangi O‘zbekiston: kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyat. / “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. № 24 (280), 2021 - yil 3 fevral

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy - ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab - quvvatlash hamda oila va xotin - qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora - tadbirlari to‘g‘risida” PF - 5938 - son Farmoni //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.02.2020 y., 06/20/5938/0187 - son; 03.04.2020 y., 06/20/5978/0393 – son,

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 yanvardagi PF - 60 - son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. QMMB: 06/22/60/0082 - son

8. 2020 - yil 6 - noyabrdagi PF - 6108 - son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida’ farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 3151 - son Qarori //www.lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775 - son Qarori. //Qonun ujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018y., 07/18/3775/1313

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 3 maydagi “Ma’naviy - ma’rifiy ishlar camaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida” PQ - 4307 - son Qarori //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079 - son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 27 fevraldagi PQ - 4623 - son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020 y., 07/20/4623/0220 - son, 13.06.2020 y., 07/20/4749/0758 - son

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 - yil 26 martdagi PQ - 5040 - son “Ma’naviy - ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 - yil 27 mart, № 62 (7842)

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora - tadbirlari to‘g‘risida” 2020 - yil 31 dekabrdagi 820 - son Qarori //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020 y., 09/20/820/1686 - son

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g’risida” 2017 - yil 26 - sentabrdagi PQ - 3289 - sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 - yil 9 - iyundagi “Oliy ta’limning meyoriy - uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259 - sonli buyrug’i.

17. “Falsafa” fani o‘quv dasturi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023 - yil 8 - avgustdagi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

18. “Dinshunoslik” fani o‘quv dasturi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023 - yil 8 - avgustdagi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.